

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


## Doimiy aholi soni.

Toshkent shahar doimiy aholisi soni 2019 yil 1 iyul holatiga 2538,4 ming kishini tashkil etib, 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 28,4 ming kishiga yoki 1,1 %ga o'sgan.


### E'tibor bering: 2019 yil yanvar-iyun

- Aholi soni **28,4 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **23,3 ming nafarni** tashkil etdi.
- **7,7 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **8,2 mingta nikoh** va **2,2 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.


## Toshkent shahar aholisining umumiy o'sishi (2019 yil yanvar-iyun)



### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1 iyul holatiga, shahar jami aholisiga nisbatan, %da)




Shahar hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 iyul holatiga eng ko'p aholi soni Olmazor tumanida 362,1 ming kishini (shahar aholisi sonidagi ulushi 14,3 %ni) va Shayxontoxur tumanida 338,8 ming kishini (13,4 %), aksincha eng kam aholi soni Bektemir tumanida 34,0 ming kishini (1,3 %) va Yakkasaroy tumanida 119,1 ming kishi (4,8 %) tashkil etdi.



## Tumanlar kesimida doimiy aholi soni (2019 yil 1 iyul holatiga, ming kishida)




**Toshkent shahar aholi soni 2019 yil 1 iyul holatiga 2538,4 ming kishi, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 2,1 foizga ko'paydi.**



Hududlar kesimida aholining eng yugori o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan Sergeli tumanida 5,5 %ga, Yashnobod tumanida 4,0 %ga, Yunusobod tumanida 2,5 %ga, aksincha eng kam o'sish sur'ati Yakkasaroy tumanida 0,7 % ni, Uchtepa tumanida 1,1 %ni hamda Bektemir tumanida 1,2 ni % tashkil etdi.

## Demografik holat

### Toshkent shahri aholi sonining jinsi bo'yicha taqsimlanishi (2019 yil 1 iyul holatiga, ming kishida)



#### Ma'lumot uchun

**Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra Toshkent shahri bo'yicha ayollar soni 1298,9 ming kishi. Erkaklar soni esa 1239,5 ming kishini tashkil qildi. Ko'rsatkichlardan shuni kuzatishimiz mumkinki, ayollar soni 2.4% ga erkaklar sonidan ko'proq.**

	Doimiy aholi soni (ming kishi)	shundan:			
		erkak (ming kishi)	ayol (ming kishi)	erkak (foizda)	ayol (foizda)
<b>Toshkent shahar</b>	<b>2 538,4</b>	<b>1 239,5</b>	<b>1 298,9</b>	<b>48,8</b>	<b>51,2</b>
tumanlar:					
Uchtepa	267,7	132,3	135,4	49,4	50,6
Bektemir	34,0	16,0	18,0	47,1	52,9
Yunusobod	335,4	161,9	173,5	48,3	51,7
Mirzo Ulug'bek	272,7	135,5	137,2	49,7	50,3
Mirobod	137,7	66,7	71,0	48,4	51,6
Shayxontoxur	338,8	166,1	172,7	49,0	51,0
Olmazor	362,1	175,0	187,1	48,3	51,7
Sirg'ali	187,5	90,5	97,0	48,3	51,7
Yakkasaroy	119,1	58,0	61,1	48,7	51,3
Yashnobod	237,7	116,2	121,5	48,9	51,1
Chilonzor	245,7	121,3	124,4	49,4	50,6

## Demografik holat

**Tug'ilish.** 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 23,3 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 18,6 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 2,0 promillega ko'paygan (2018 yilning yanvar-iyun oylarida 16,6 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan Uchtepa tumanida (18,9 promilledan 22,3 promillega) Yunusobod (16,5 promilledan 18,7 promillega) Yashnobod tumanida (15,3 promilledan 17,4 promillega) tumanlarida sezilarli o'sganligi kuzatildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.




**Qiz bolalar:**  
11,2  
ming nafar



**O'g'il bolalar:**  
12,1


### Toshkent shahri bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi yanvar-iyun

	2018y.	2019y.	O'sish surati foizda
<b>Toshkent shahar</b>	<b>20 376</b>	<b>23 310</b>	<b>114,4</b>
tumanlar:			
Uchtepa	2 467	2 949	119,5
Bektemir	384	447	116,4
Yunusobod	2 664	3 087	115,9
Mirzo Ulug'bek	1 803	2 005	111,2
Mirobod	984	1 059	107,6
Shayxontoxur	2 912	3 184	109,3
Olmazor	3 105	3 663	118,0
Sergeli	1 798	2 021	112,4
Yakkasaroy	703	721	102,6
Yashnobod	1 728	2 027	117,3
Chilonzor	1 828	2 147	117,5



## Demografik holat

### Toshkent shahri bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi yanvar-iyun




## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 7,7 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 6,2 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega kamaydi (2018 yilning yanvar-iyun oylarida 6,5 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayishi Mirobod (7,7 promilledan 7,0 promillega), Olmazor (5,9 promilledan 5,2 promillega), Yashnobod (8,2 promilledan 7,3 promillega), Chilonzor (6,8 promilledan 6,2 promillega) va Sergeli (7,3 promilledan 6,9 promillega) tumanlarida kuzatildi.

## Vafot etganlar




### Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlar soni, kishi yanvar-iyun


	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati foizda
<b>Toshkent shahar</b>	8 026	7 734	96,4
tumanlar:			
Uchtepa	861	834	96,9
Bektemir	121	126	104,1
Yunusobod	1 072	1 036	96,6
Mirzo Ulug'bek	979	986	100,7
Mirobod	518	478	92,3
Shayxontoxur	770	760	98,7
Olmazor	1 035	936	90,4
Sergeli	642	633	98,6
Yakkasaroy	302	304	100,7
Yashnobod	921	884	96,0
Chilonzor	805	757	94,0

## Demografik holat

### Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlar soni, kishi yanvar-iyun



### Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlarning o'tgan yilga nisbatan o'sish surati (foizda)




## Demografik holat

2019 yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 61,6 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 14,6 %i o'simtalardan, 5,5 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,7 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,9 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 2,8 %i yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 6,9 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,3 ming nafarni tashkil etib, ularning 60,3 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 21,4 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 9,7 %i tug'ma anomaliyalardan, 5,2 %i yuqumli va parazitlar kasalliklardan va 3,4 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



### 2018 yil yanvar-iyun

**Tabiiy o'sish.** 2019 yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 15,6 ming kishini tashkil etib, 2018 yil mos davriga nisbatan 2,6 ming kishiga (2018 yilning yanvar-iyun oylarida 13,0 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:  
15,6 ming kishi

## Demografik holat

**Nikoh.** 2019 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 8,2 ming nikohlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,5 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Mirobod (114,4%), Olmazor (113,1%), Uchtepa (112,8%), tumanlarda tog'ri kelmoqda.

**Nikohdan ajralishlar.** 2019 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 2,2 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,8 promilleni tashkil etdi.


Ajrimlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Yakkasaroy (126,4%), Uchtepa (123,5%), Mirzo Ulug'bek (119,8%) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

### Toshkent shahri bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-iyun)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2018 y.	2019 y.	O'sish surati foizda	2018 y.	2019 y.	O'sish surati foizda
<b>Toshkent shahri tumanlar:</b>	<b>7 664</b>	<b>8 186</b>	<b>106,8</b>	<b>2 049</b>	<b>2 223</b>	<b>108,5</b>
Uchtepa	837	944	112,8	196	242	123,5
Bektemir	167	147	88,0	41	44	107,3
Yunusobod	1 021	1127	110,4	259	277	106,9
Mirzo Ulug'bek	666	749	112,5	222	266	119,8
Mirobod	353	404	114,4	141	147	104,3
Shayxontoxur	1 053	1040	98,8	202	224	110,9
Olmazor	944	1068	113,1	246	256	104,1
Sirg'ali	743	705	94,9	230	205	89,1
Yakkasaroy	380	378	99,5	72	91	126,4
Yashnobod	696	737	105,9	229	235	102,6
Chilonzor	804	887	110,3	211	236	111,8

## Demografik holat

Toshkent shahri bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik  
(yanvar-iyun)



## Demografik holat


**Migratsiya.** 2019 yil yanvar-iyun oylarida Toshkent shahar bo'yicha ko'chib kelganlar soni 16,4 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 3,6 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi 12,8 ming kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida 7,9 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun
<b>Ko'chib kelganlar</b>	12,3	16,4
<b>Ko'chib ketganlar</b>	4,9	3,6
<b>Migratsiya saldosi</b>	7,9	12,8



### Toshkent shahri tumanlar kesimida aholi migratsiyasi (ming kishi)



Migratsiya saldosinging yuqori darajasi Yashnobod (2,7 ming kishi), Chilonzor (1,8 ming kishi), Sergeli (1,9 ming kishi) hamda Mirzo Ulug'bek (1,6 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

Toshkent shahar statistika boshqarmasi  
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi  
Nashr uchun mas'ul: O.Abduraxmanov  
(71) 230-88-22